

IMPACT FACTOR 9.2

# MIASTO, PRZYSZŁOŚCI



*Open-Access , Peer-Reviewed, Monthly, Indexed  
Research Journal from Poland*

**WWW.MIASTOPRZYSZLOSCI.COM**

**Table of Content - Volume 32 (Feb 2023)**

<b>No</b>	<b>Paper Title</b>	<b>Author Name</b>	<b>Page No</b>
1	Skillful Geometric Techniques in the Architecture of Central Asia of the IX-XII Centuries	Sharofat Umidullayevna Sobirova , Fiona Fayzullayeva	1-4
2	Market Infrastructure and its Elements	Kodirov Mukhammad - kodir Zokirovich	5-8
3	Jinoyat Natijasida Jabrlanuvchiga Yetkazilgan Mulkiy Ziyonni Qoplashni Xalqaro Huquq Normalari Asosida Takomillashtirish	Samatov Samatjon Kodir O'g'li	9-12
4	Development by a Graphic User Interface - Programs in the Tkinter Package Using Modern Pedagogical Technologies in the Field of Medicine	Vohidov Alikul Melitoshevich, Vohidov Dilshod Alikulovich	13-17
5	Comparative Analysis of Art Terminology in English and Uzbek Languages	Rahima Khojiakbarova	18-20
6	The Chivalric Romance as a Type of Prose and Verse Narrative in Medieval English Literature	Arazduriyeva Annasoltan Narbayevna	21-22
7	Features of the Psychoemotional Status of Patients with Rheumatoid Arthritis	Toirov Doston Rustamovich, Khusainova Munira Alisherovna, Kamolova Diyora Djamshevdovna, Khaydarov Sanjar Nizamiddinovich	23-30
8	O'zbek Nekronimiyasi O'rganilish Xususiyatlari	Ruxsora Ozodbayeva Mansur qizi	31-33
9	Shuhrat Matkarimovning "Yilon" Qissasidagi Dialektizmlar Tahlili	Mashhura Qodirova	34-36
10	Teaching Speaking Skills in the Hybrid/Online Classroom	Sharif Khurshidakhon Nurilla kizi	37-41
11	Pistaning Yangi Navlari Va Uning Foydalari	Qurbanbayev Yusufboy Baxtiyor o'g'li, Safarov Iskandar Sayfiddin o'g'li	42-43
12	Tilshunoslikda Konseptual Maydon Qurilishi Xususiyatlari	Kutlimuratova Gavxar Kuranbayevna	44-46
13	Ta'lim Jarayonlarini Raqamli Texnologiyalar Asosida Takomillashtirish	Imomova Shafolat Mahmudovna, Norova Fazilat Fayzulloyevna	47-49
14	Milliy Hunarmandchilikni Rivojlantirishning Muhim Jihatlarini	Tursunova Dildora	50-52
15	Анализ Миграционных Процессов На Великом Шелковом Пути	Б. Ж. Эшов	53-59
16	Исследование Глаголов Зрительного Восприятия Видеть (Ko'rmoq) И Смотреть (Ko'rmoq, Qaramoq) В Русском И Узбекском Языках	Бахриева Шахноза Давроновна	60-62
17	About Some Issues of Teaching Foreign Languages Using Modern Educational Technologies	Mirzaeva Mukhabat Jalolovna	63-66
18	The Objectives and Content of Teaching Academic Writing	Agzamkhodjaeva Saodat Abrarovna	67-71
19	Enhancing the Communicative Competence of Students at the English Classes	Ibrohimova Lobar Is'hoqovna	72-75

**Table of Content - Volume 32 (Feb 2023)**

No	Paper Title	Author Name	Page No
80	Application of Modern Microprocessors in Technological Measuring Devices and Principles of their Use	Allamberganova Mexribanu Mirzabek qizi, Koshmuratova	320-326
81	A Combination of Assessment Concepts	Sulaymanova Nilufar Jabbarovna	327-330
82	Artistic Concept of Individual and Society	Kojikbaeva Ziyada Adilbayevna	331-334
83	The Image of Magical Clothes in English Wonder Tales	Djumayeva Nozima Djurabayevna	335-339
84	Ecological Culture - A View of Public Opinion	Gumshag'ul Esemuratova	340-341
85	Forming Methods of Ornithonyms in Uzbek and English Languages	Nargiza Maxmudova	342-346
86	Increasing the Energy Efficiency of Buildings	N. D. Teshaboeva	347-350
87	The Usage Features of the Phraseology in the Epic "Bahadir" by A. Dabilov	Nurjamal Karamatdinova	351-353
88	Rey Bredberining "Marsga Hujum" ("The Martian Chronicles") Asari Tarjimasida Leksik Xususiyatlar	Usmonova Zarina Habibovna	354-357
89	Qoraqalpoq Musiqa Uslubi O'ziga Yarasha Xilma-Xil Va Rang-Barangligi	Iqlasbay Hojanov	358-360
90	Словообразовательная Метафора, Основанная На Внешнем Сходстве	С. С. Жумабоева, Ф. И. Абдурахманов	361-363
91	Экспериментал Гипокинезия Модели Каламушларда Жигар Функционал Параметрларига Таъсири	Думаева Зухра Насирдиновна, Мирзабеков Исмоилжон Адахамжон угли, Холдаралиева Наргиза Боходиржон кизи, Юлдашева Гулмира Адилевна, Зухридинова Гулираъно Зулпидин кизи	364-368
92	Абу Али Ибн Сина Философ - Идеологические И Теоретические Основы Взглядов	Буриев Исраил Исмаилович	369-372

## Rey Bredberining “Marsga Hujum” (“The Martian Chronicles”) Asari Tarjimasida Leksik Xususiyatlar

*Usmonova Zarina Habibovna*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarjima turlari va ularning tarjimon tomonidan asar tarjimasida turlicha foydalanilishi, shuningdek, bu jarayonda asar tarjimasining asliyat mazmun mohiyatini buzmaslik uchun tarjimonning o'ziga xos uslubi haqida so'z boradi.

Tarjimon uslubi nafaqat til imkoniyatlarini qamrab oladi, balki asliyat, bilvosita va bevosita tarjima xususiyatlarda lingvomadaniy xususiyatlarni ham qamrab olishi, asliyatdagi ruhiyatni to'laqonli buzmasdan kitobxon tiliga tarjima qilishda bilvosita tarjimaning ahamiyati yaqqol ko'zga tashlanadi.

**Tayanch tushunchalar:** leksik birlik, grammatik transformatsiya, uslub, tasviriy ifoda, transliteratsiya, transformatsiya, muqobil, kalkalash, obrazli tarjima, tarjimon, tarjima.

Fan-texnika rivoji bugungi kun taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Adabiy soha nafaqat adabiy janr, badiiy uslub, badiiy tasvir balki asar va yozuvchi bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi. Aslida inson aqliy faoliyatining ikki sohasi – fan va adabiyot, bu sohalarda qalam tebratuvchi ikki qalb egasi – olim va adibning mehnati o'rtasidagi umumiylik tabiat va jamiyat hodisalarini tasnif qilish va tasvirlash, taraqqiyot va ma'naviy kamolot yo'lida jamiyat manfaatlariga xizmat qilishdan iborat. Mushohadaning asl mohiyati shundaki, fan tahlili – ilmiy tahlildan, adabiyotda esa bu badiiy mushohada bilan badiiy tahlildan tashkil topgan.

Til va adabiyot rivoji mahsuli sifatida tarjima xarakterlanadi, bu jarayon “insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima – bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir”<sup>2</sup> – deb talqin qilindi. Demak, asliyat mansub bo'lgan til vositalari yordamida yaratilgan nutqiy ifoda tarjima tili qonuniyatlari asosida vujudga keltirilgan shunday ifoda bilan almashtiriladi

Muqobillar ma'nosi ko'p hollarda kontekstga bog'liq bo'ladi, ammo lug'atga murojaat qilish ham muhimdir. Tarjimada so'z ma'nolarini taxminiy tarjima qilishga yo'l qo'yilmaydi. So'z va uning ma'nolarini tarjimon yaxshi bilishi yoki ulami lug'atdan topishi shart. Aks holda tarjimon “tarjimonning soxta do'stlari” tuzog'iga tushishi muqarrar.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, asliyatdagi so'zga qisman to'g'ri keladigan ekvivalentni topish ko'pincha tarjima qilishda muammo yaratadi. Bunday so'zlar odatda polisemantik, ya'ni ko'pma'noli hisoblanadi. So'z ma'nosining qaysi biri qo'lanilganini aniqlash tarjimonning birinehi galdagi vazifasi hisoblanadi. Bunda tarjimonni adashishdan, noto'g'ri so'z tanlashdan saqlaydigan til hodisasi bu - kontekst hisoblanadi. Ko'chma ma'noda aytadigan bo'lsak, konteksttarjimonning yo'lchi yulduzi, mayog'idir. Kontekst tarjimonning eng ishonarli quroli sanaladi fiilshunoslikda odatda kontekstning ikki -lingvistik va ekstralingvistik turi mavjud. Lingvistik kontekst o'z navbatida ikki turga — keng va tor ma'nodagi kontekstlarga bo'linadi.

Shu o'rinda shunui aytib o'tishimiz darkorki, tarjima jarayonida tor ma'nodagi kontekst ibora va gap doirasida, keng ma'nodagi kontekst iboradan katta bo'lgan birlik hamda butun bir matnni o'z ichiga olishi mumkinki, Aksariyat hollarda so'z ma'nosi kichik kontekst doirasida aniqlanadi, o'z ma'nosida

<sup>1</sup> Buxoro davlat universiteti, katta o'qituvchi

<sup>2</sup> I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. “Tafakkur bo'stoni” nashriyoti. – Toshkent, 2012. – B.104



qo‘llangan so‘zlar va ko‘chma ma‘noda qo‘llangan so‘zlarni tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlari bor. “Kontekstda odatda so‘zlar o‘z ma‘nosida qo‘llanmaganda, ya‘ni ko‘chma ma‘noda qollanganda tarjima muammosi paydo bo‘ladi.”<sup>3</sup> Ba‘zi hollarda so‘z ma‘nosini to‘liq anglash uchun butun bir gapni tushunishimiz lozim bo‘lmadi.

So‘ngi yillarda bizning mamlakatimizda tarjima tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarning ko‘pchiligi dastlab adabiy-tarixiy, ayrimlari lingvistik yunalishlarda olib borildi. Dastlabki yondashuv tarafdorlari asosiy e‘tiborni o‘g‘irilayotgan asarning badiiy-estetik qiymatigagina qaratib, badiiy yodgorlikning birlamchi asosi bo‘lmish lisoniy jihatini nazardan soqit qilgan bo‘lsalar. Keyingi yondashuv tarafdorlari qiyoslanayotgan ikki til vositalarining ko‘proq lug‘aviy muvofiqliklaridan kelib chiqib, asarning badiiy-estetik jihatiga kam e‘tibor berdilar.

Mazkur yo‘nalishlarni hamda asliyat mansub bo‘lgan xalq moddiy, ma‘naviy, siyosiy va iqtisodiy hayoti bilan bog‘liq rango-rang g‘ayrilisoniy omillarni uzida aks ettiradigan lisoniy-uslubiy vositalar vazifalarining tarjimada qayta ijodiy yaratilishi masalasi esa tarjimashunoslikning maxsus tadqiqot mavzui sifatida mamlakatimiz ilmiy-adabiy jamoatchiligi e‘tiborini keyingi yillardagina o‘ziga torta boshladi.

Masalan, Rey Bredberining “Marsga hujum” (“The Martian Chronicles”) asarining bilvosita tarjimasini tahlil ostiga olar ekanmiz, asliyatdagi leksik qilishi yoki o‘xshashligi, tarjima jarayonida umumiy va xususiy qoidalar kabi dolzarb masalalar ko‘tarilgan. Ushbu asar fantastik asar bo‘lganligi uchun unda aql bovar qilmaydigan voqea va hodisalar, shuningdek, ilmiy fantastikaning asosiy xususiyati bo‘lmish gallaktikaga sayohat kabi dolzarb mavzular aynan “marsga hujum” asaridan o‘rin olgan. Bunda Yer sayyorasiga yaqin sayyora Mars tilga olinadi va yerliklarning bu yerda qanday g‘aroyibotlar kutishini asarni o‘qish davomida kitobxon guvoh bo‘ladi. Asar kalkalash usulida rus tilida bevosita tarjima qilingan bo‘lib, o‘zbek tilida esa rus tilidan bevosita o‘girilib, bu jarayonda tarjimaning ko‘plab turlariga murojaat qilingan. “Marsga hujum” asarining bilvosita tarjimasini Amir Fayzulla qalamiga mansub bo‘lib, unda Mars sayyorasining badiiy va fantastik tasviri bilvosita tarjimasida tarjimon qanday tarjima turlaridan foydalangani e‘tiborga molik. Zero, shunday tasvirlar kitobxonni uzoq sayohatga undashga turtki bo‘ladi. Asar boshidagi dastlabki hikoyada “Raketa yozi”<sup>4</sup>(“Rocket summer”<sup>5</sup>) deb nomlanuvchi sarlavha aynan kosmik kemaning Yerdan uchib ketishi va uchish jarayonidagi tasvirlar tarjimada badiiy vositalar bilan berilgan bo‘lib, asar ixlosmandlari benihoya xuddi kosmodrom yaqinida istiqomat qiluvchi aholiday taassurotga ega bo‘ladi:

*“Rocket summer. People leaned from their dripping porches and watched the reddening sky. The rocket lay on the launching field, blowing out pink clouds of fire and oven heat. The rocket stood in the cold winter morning, making summer with every breath of its mighty exhausts. The rocket made climates, and summer lay for a brief moment upon the land*

*“Ракетное лето. Высунувшись с веранд под дробную капель, люди смотрели вверх на алеющее небо. Ракета стояла на космодроме, испуская розовые клубы огня и печного жара. В стужу зимнего утра ракета творила лето каждым выдохом своих мощных дюз. Ракета делала погоду, и на короткий миг во всей округе воцарилось лето...”<sup>6</sup>*

*“Ракета ёзи. Одамлар ёмгур томчилари титрадай тўкилаётган айвондан бошларини чиқариб, қизара бошлаган осмонга қарар эдилар.*

*Пуштиранг олов ва чўгдек ҳовур уфуриб турган космодромда ракета қаддини гоз тутиб турар эди. Аёзли қиш тонгида ракета ўзининг қудратли оташ нафаси билан атрофни ёз қилиб юбораётганди. Ракета об-ҳаво яратмоқда ва бир неча лаҳзадан буён чор атрофда ёз ҳукм*

<sup>3</sup> Igamberdiyeva L.G'. “Tarjima qilish jarayonida qo‘llaniladigan tarjima turlari va usullari”,<sup>4</sup> Yosh Tadqiqotchi Jurnal, ISSN: 2181-3132 Vol. 1 No. 4(2022), scientific journal impact factor 4.7, <https://doi.org/10.5281/zenodo.6523124>

<sup>4</sup> Рэй Брэдбери, “Марсга хужум”. “Янги асп авлоди”, – 2016 йил. – Б.4

<sup>5</sup> Ray Bradbury. The Martian Chronicles. Voyager, An imprint of HarperCollins Publishers, London Bridge Street, London SE1 9GF Cover layout design © HarperCollins, Publishers 2014, P.8

<sup>6</sup> Р. Д. Брэдбери. «Марсианские хроники». © Издание на русском языке, оформление. ООО «Издательство «Эксмо», 2013 Ст. 6



сурмоқда эди...”<sup>7</sup> Ushbu parchada “*leaned from their dripping porches*” soʻz birikmasi asliyat namunasida “*tomchilayotgan ayvon*” bevosita tarjimada “*Высунувшись с веранд под дробную капель*” gapda “*веранд под дробную капель*” “*tomayotgan tomchi*” alohida izoh va aniqlovchi bilan berilgan.

Bilvosida tarjimada esa, “*ёмгир томчилари нитрадай тўкилаётган айвондан бошларини чиқариб*” qismida aniq ifodani guvohi boʻlasiz – “*ёмгир томчилари*”, shuningdek, oʻxshatishdan ham tarjimon oqilona foydalangandek goʻyo, “*нитрадай тўкилаётган*”.

Keyingi gapning bilvosita tarjimasida gaplarning tarkibi boʻyicha asliyatdan ancha farq qilishi va leksik jihatdan milliy koloritimizdagi ayrim soʻzlardan foydalanilganligini koʻramiz. Misol uchun, asl nusxa “*The rocket lay on the launching field, blowing out pink clouds of fire and oven heat. The rocket stood in the cold winter morning, making summer with every breath of its mighty exhausts.*”, bevosita tarjima “*Ракета стояла на космодроме, испуская розовые клубы огня и печного жара. В стуже зимнего утра ракета творила лето каждым выдохом своих мощных дюз.*”, bilvosita tarjimada “*Пуштираг олов ва чўгдек ҳовур уфуриб турган космодромда ракета қаддини гоз тутиб турар эди. Аёзли қиш тонгида ракета ўзининг қўдратли отаи нафаси билан атрофни ёз қилиб юбораётганди.*” gaplar leksik jihatdan bir-biriga mos ammo asl nusxadan farqli oʻlaroq, raketaning holati tasvirini tarjimon berarkan, “*gʻoz*” soʻzini ishlatgan, bu esa milliy xususitani kasb etgan. Asl nusxa va bevosita tarjima namunalarida gaplarning leksik xususiyati bir-biriga yaqin, biroq bilvosita tarjimada milliy xususiyatlar, badiiy vositalarning ustunligini koʻramiz.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tarjimada leksik xususiyatlar aynan asl nusxa bilan qiyoslab oʻrganilibgina qolmay, balki asar tarjimasining turi va oʻziga xos xususiyatlarini qamrab oladi. Shuningdek, asar tarjimasining bilvosita tarjimasini, bevosita tarjimasidagi milliy-madaniy xususiyatlar ham uning leksik xususiyatiga taʼsir koʻrsatadi. Rey Bredberining “*Marsga hujum*” oʻzbek tilidagi bilvosita tarjimasida ham bunday masalalar oʻz aksini topadi.

#### Adabiyotlar roʻyxati:

1. Abdunabiyev Sunnat Botirovich. Tarjimashunoslikda uslub muammosining oʻrganilganligi// Taʼlim fidoyilari. (Vol.1 ISSUE 1, (2022)). – P.359
2. I.Gʻofurov, O.Moʻminov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. “Tafakkur boʻstoni” nashriyoti. – Toshkent, 2012. – B.184
3. Ray Brudbury. The Martian Chronicles. Voyager, An imprint of HarperCollins Publishers, London Bridge Street, London SE1 9GFCover layout design © HarperCollins, Publishers 2014, P.302
4. Igamberdiyeva L.Gʻ. “Tarjima qilish jarayonida qoʻllaniladigan tarjima turlari va usullari”, 4 Yosh Tadqiqotchi Jurnal, ISSN: 2181-3132 Vol. 1 No. 4(2022), scientific journal impact factor 4.7, <https://doi.org/10.5281/zenodo.6523124>
5. М.И.Гаспаров. Под строчники меры точности. «Теория перевода и научные основы подготовки переводчиков», - Москва, 1995. – С.180
6. Саломов Ф. Tarjima sanʼati. Maqolalar tuplami. – T.: “Fan”, 1993. – B.325
7. Р. Д. Брэдбери. «Марсианские хроники». © Издание на русском языке, оформление. ООО «Издательство «Эксмо», 2013Ст.
8. Рэй Брэдбери, “Марсга хужум”. “Янги аср авлоди”, 2016 йил, Б.3
9. Ғайбулла Саломов. Tarjima ташвишлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санʼат нашриёти, 1983. – 189 б.
10. Usmonova Zarina Habibovna. (2022). The Implementing Author’s Vivid Speculation of the Technologically Advanced Era in the “I Robot” By Isacc Asimov. Eurasian Research Bulletin, 7, 63–65. <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1019>

<sup>7</sup> Рэй Брэдбери, “Марсга хужум”. “Янги аср авлоди”, – 2016 йил. – Б.4



11. Erkinovna, Y. F. Negative Politeness. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 1249-1255. <https://media.neliti.com/media/publications/344146-negative-politeness-c55f7abc.pdf>.
12. Toshnazarovna, E. M. (2022). ALLUSIONS TO HISTORICAL CHARACTERS AND EVENTS IN THE NOVEL BELLEFLEUR BY JOYCE CAROL OATES. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMİY JURNALI*, 2(1), 274-277. <http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/861>
13. Djalilova, Z. (2022). ОПИСАНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ОБРАЗА ПОСТРЕДСТВОМ ЦВЕТОВ В АНГЛИЙСКОЙ ПОЭЗИИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 26(26). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8567](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8567)
14. Kobilova Aziza Bakhriddinovna. The use of the medical periphrases of the Uzbek and English languages in journalistic texts // *JournalNX: A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. ISSN (Online): 2581-4230, Vol.7, Issue 6, 30-June 2021. –P. 143–150. (Impact Factor (SJIF. 2021) – 7.22). <https://www.neliti.com/publications/347772/the-use-of-the-medical-periphrases-of-the-uzbek-and-english-languages-in-journal>

